



TAFAKKUR BILISH JARAYONI SIFATIDA

Quvvatova Gulhoyo G`ulomjon qizi¹,
Mamaraimova Ra`no Usmonova²

¹Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
Pedagogika va Psixologiya fakulteti II- kurs talabasi,²Ilmiy rahbar
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6568077>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022
Ma`qullandi: 10- may 2022
Chop etildi: 20- may 2022

ANNOTATSIYA

*Tafakkur- inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir.
Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona
amaliy faoliyatning vujudga kelishi uchun shartdir.*

KALIT SO'ZLAR

*Analiz, sintez, taqqoslash,
umumlashtirish,
sistemalashtirish,
klassifikatsiyalash,
konkretlashtirish,
abstraksiya, empirizm.*

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a`zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo`lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o`rtasidagi ko`z bilan ko`rib quloq bilan eshitib bo`lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki munosabatlar hamda qonuniyatlarimizni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak tafakkur deb narsa va hodisalar o`rtasidagi eng muhim bo`g`lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Tafakkur jarayonida fikr paydo bo`ladi, bu fikrlar insoning ongida muhim tushunchalarni shaklini oladi. Tafakkur nutq – til bilan chambarchas bog`langan. Isonda tafakkur va nutq bo`lganligi tufayli

u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudoddir. Inson o`z atrofidagi olamda bo`lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushuradi va ongli ravishda harakat qiladi. Inson o`z tafakkuri orqali ongi bilan hayvonat olamidan ajralib chiqan hamda jahonning hukmdoriga aylangan. Tafakkur inson bilish faoliyatining yuksak bosqichi hisoblanib, uning yordami bilan atrof - muhitga aloqador qonuniyatlar ochiladi, bunyodkorlik ishlari ro`yobga chiqariladi, jamiyatning istiqbolli rejalari yaratiladi, tabiatga nisbat o`rnatiladi. Ma`lumki, olamdagi barcha narsalarning yaralishi, loyihasining tuzilishi, yaqqol ijrosi, g`oyalar ishab chiqarishning barchasi tafakkur mahsuli bo`lib hisoblanadi. Taraqqiyot (progrees) madaniyat, jamiyat, shaxs kamoloti negizida



salohiyat majmuasi tarzida yuzaga keluvchi, rivojlanishni harakatlantiruvchi – tafakkur yotadi. Inson o'z tafakkuri, nutqi, ongi mavjudligi tufayli dunyodagi, borliqdagi mavjudotlardan ham mazmun ham miqdor jihatdan yuksak kamolot darajasiga ko'tarilgan. Xuddi shu bois inson tafakkurini rivojlantirish, takomillashtirishning ichki imkoniyatlarini, mexanizmlarini ro'yobga chiqarish taraqqiyotning belgilovchi omili sifatida gavdalaniladi.

Sezgi va idroklarga, xotira tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Masalan, biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib g'arbga botayotganini hammamiz ko'rib (idrok qilamiz). Biz yerning qimirlamay turgaligini quyosh esa yer atrofida aylanayotganligini ko'ramiz. Ko'p asrlar davomida juda ko'p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasidagina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan, balki yer o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga to'g'ri kelmas ekan - voqelikning to'g'ri aks etishi, ya'ni haqiqat tafakkur yordami bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash takakkur jarayonidagi hosil bo'lgan tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi.

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon ta'sirida sodir bo'ladi. Bosh miyaning uchaskasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miyaning biror po'stining biror uchaskasidagi faoliyat mana shu jarayonning fizologik

asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyasidagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchaskalari bir biridan keskin farq ajralgan holda emas, balki bir – biriga tushunib, bir – biridan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerf-fizologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi. I.P. Pavlov ikkinchi signal tizimining hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida sodir bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy emtirizmni va nihoyat odamning o'zi tevarakdagi olamni va uning oliy quroli bo'lgan oliy tafakkur voqe bo'ladi. Tafakkur muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv – fiziologik asos bo'lgan oriyentirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P. Pavlov ta'kidlaganidek, ("Avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat o'zini ham bilish uchun oliy quroli bo'lgan fanni yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarur").

G'arb psixologlari tomonidan yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarda miyaning tuzilishi odamning intellektlilik darajasiga bog'liqligi, ya'ni "ziyoli" yoki "intellektlilik" odamlarda bosh miya po'stidagi analizatorlarning uchlari juda ham zich joylashgan bo'lib, ularda o'tkazilgan tafakkur darajasini aniqlash kabi testlardan ma'lumotlarni tez anglab olish va uning mohiyatni tushunish



boshqalarga nisbatan tezroq va samaraliroq bo'lishini aniqlagan.

Bu bilan Akademik I.P.Pavlov nimani ta'kidlamog'chi avvalo insonda umuminsoniy empirizmni ya'ni tajriba kerakligi bu esa atrof – muhitni bilishda qo'lidagi qurol ekanligini ta'kidlaganlar, bundan tashqari biron narsa yaratishda yoki bilishda tafakkurga tayanishimizni keltirib o'tganlar desam mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari G'arb psixologlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki "ziyoli" va "intelligent" odamlarda bosh miya po'stlog'ida joylashgan analizatorlarning juda zich bo'lganligi, ularning boshqa oddiy insonlarga nisbatan tafakkur borasidagi testlari samarali chiqanini ko'rishimiz mumkin.

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarni kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilishi sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalarni narsalarning butun sinf turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning obyekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq

tafakkur bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari bizdagi fikrlash jarayonini ta'minlovchi alohida operatsiyalar ham mavjud, ular quydagilar: Analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkeratlashtirish, mavhumlashtirish va hakoza.

Fikrlash operatsiyalariga: analiz (fikran narsa va hodisalarga taaluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), sintez (analiz jarayonidagi ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo'shish), mavhumlashtirish (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalardan fikrni chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), taqqoslash (predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir biriga solishtirish umumiy va farq qiluvchi jihatlarni topish), umumlashtirish (umumiy va muhim sifatlariga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiyashtirish) kabilar kiradi.

Biz aynan mana shu tafakkur va tafakkur operatsiyalari orqali borliqni bilishimiz, anglashimiz tahlil qilishimiz imkoniyatiga ega bo'lamiz. Tafakkur bilish jarayonlari ichida eng muhimi hisoblanib, bizga hayotimiz davomida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashimizda asqotadi.

References:

1. 1 G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. Darslik –T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2016.
2. 2 R. N. Meliboyev Tafakkurning rivojlantirishning interfaol usullari Monografiya "Adabiyotlar uchqunlari" nashriyoti 2013 yil.
3. 3 Dj U, Kalat Psychology .2013.
4. 4 JAMES W. Kalat Interoduction to Psychology 10 edition 2013, 324 – 326 p.